

## CHO'LPONNING "KECHA VA KUNDUZ" ROMANIDAGI FRAZELOGIZMLARNING INGLIZ TILIGA TARJIMASI VA CHRISTOPHER FORT MAHORATI

**Jumanova Orzigul Sa'dulla qizi,**  
Qarshi Davlat Texnika Universiteti  
"Xorijiy tillar" kafedrasida assistenti  
ORCID: 0009-0007-6303-8793  
Email: [jumanovaorzigul@gmail.com](mailto:jumanovaorzigul@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi frazeologik birliklarning ingliz tiliga tarjima qilinishi Christopher Fort tarjimasi asosida tahlil qilinadi. Maqolamizda frazeologizmlarning badiiy matndagi stilistik vazifasi, milliy-madaniy xususiyatlari hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar yoritilgan. Shuningdek, tarjimada qo'llangan asosiy strategiyalar — ekvivalent tarjima, analogik tarjima, kalkalash va tasviriy tarjima usullari misollar asosida tahlil etilgan. Olib brogan tahlil natijalarimiz Christopher Fort asiyat mazmuni va pragmatik ta'sirini saqlashga intilganini, biroq ayrim hollarda milliy kolorit va obrazlilik qisman yo'qolganini ko'rsatadi. Maqolada tarjimaning semantik va stilistik adekvatligi baholanib, frazeologik birliklarni tarjima qilishning nazariy hamda amaliy jihatlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** frazeologizm, badiiy tarjima, Cho'lpon, Kecha va kunduz, Christopher Fort, ekvivalent tarjima, milliy kolorit, tasviriy tarjima, adekvatlik.

**Аннотация.** В данной статье анализируется перевод фразеологических единиц романа Ночь и день на английский язык на основе перевода Кристофер Форт. В статье рассматриваются стилистические функции фразеологизмов в художественном тексте, их национально-культурные особенности, а также трудности, возникающие в процессе перевода. Кроме того, на примерах анализируются основные переводческие стратегии: эквивалентный перевод, аналогический перевод, калькирование и описательный перевод. Результаты проведенного анализа показывают, что Кристофер Форт стремился сохранить содержание оригинала и его прагматическое воздействие, однако в некоторых случаях национальный колорит и образность были частично утрачены. В статье также оценивается семантическая и стилистическая адекватность перевода, раскрываются теоретические и практические аспекты перевода фразеологических единиц.

**Ключевые слова:** фразеологизм, художественный перевод, Чулпан, Ночь и день, Кристофер Форт, эквивалентный перевод, национальный колорит, описательный перевод, адекватность.

**Abstract.** This article analyzes the translation of phraseological units in the novel *Kecha va kunduz* into English based on the translation by Christopher Fort. The paper discusses the stylistic functions of phraseological units in literary texts, their national and cultural features, and the challenges arising in the translation process. In addition, the main translation strategies — equivalent translation, analogical translation, calque, and descriptive translation — are analyzed through examples. The results of the study show that Christopher Fort attempted to preserve the meaning and pragmatic effect of the original text; however, in some cases the national color and imagery were partially lost. The article also evaluates the semantic and stylistic adequacy of the translation and highlights both theoretical and practical aspects of translating phraseological units.

**Keywords:** phraseological unit, literary translation, Chulpon, "Night and Day", Christopher Fort, equivalent translation, national color, descriptive translation, adequacy.

**Kirish.** XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Abdulhamid Cho'lpon yaratgan *Kecha va kunduz* romani badiiy-estetik qiymati, xalqona iboralar va frazeologik birliklarga boyligi bilan alohida ahamiyatga ega. Asarda ishlatilgan

frazeologik birliklar qahramonlarning ruhiy holatini, xalqning milliy dunyoqarashi, urf-odati va madaniy xususiyatlarini yorqin ifodalashga yordam beradi. Shu sababli, bu birliklarni boshqa tilga tarjima qilish tarjimashunoslikning eng murakkab masalalaridan biridir. Ayniqsa, obrazlilik va milliy koloritni o'zida mujassam etgan frazeologizmlarni tarjima qilishda tarjimondan nafaqat til bilimlari, balki chuqur madaniy va stilistik tafakkur ham talab etiladi. Badiiy tarjimada frazeologik birliklarning to'g'ri tarjimasini yaratish muammosi zamonaviy tarjimashunoslikning dolzarb masalalaridan biridir. Chunki frazeologizmlar tarkibidagi ma'no ko'pincha komponentlarning lug'aviy ma'nosidan kelib chiqmaydi, balki umumiy obraz va konnotativ mazmundan kelib chiqadi. Natijada ularni boshqa tilga aynan ko'chirish ko'plab semantik va pragmatik qiyinchiliklarni paydo qiladi. Shu jihatdan milliy-madaniy xususiyatga ega frazeologik birliklarni ingliz tiliga tarjima qilish masalasi ilmiy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning obykti sifatida "Kecha va kunduz" romani tanlandi. Tadqiqot predmeti roman tarkibidagi frazeologik birliklar va ularning ingliz tiliga qilinayotgan tarjimasini bo'ladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi Kristofer Fort tarjimasida frazeologik birliklarni qanday berishini aniqlash va ularning tarjimasini to'g'riligini tahlil qilishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: roman matnidagi frazeologik birliklarni aniqlash, ularni semantik va struktur jihatdan tasniflash, tarjimada qo'llangan strategiyalarni tahlil qilish, hamda tarjima variantlarining uslubiy va pragmatik to'g'riligini baholash. Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil, kontekstual tahlil va lingvokulturologik yondashuv metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar yordamida asliyat va tarjima matnidagi frazeologik birliklarning o'xshash va farqli jihatlari ilmiy asosda yoritiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Frazeologik birliklar tilning eng muhim obrazli qatlamlaridan biridir. Ular xalqning tarixiy tajribasi, milliy tafakkuri, turmush tarzi va madaniy qarashlarini o'z ichiga oladi. Tilshunoslikda frazeologizmlar tayyor holda qo'llaniladigan, semantik jihatdan yaxlit va ko'chma ma'noga ega bo'lgan turg'un birikmalar sifatida tushuniladi [1]. Frazeologik birliklarning asosiy belgilariga turg'unlik, obrazlilik, emotsional-ekspressivlik va komponentlarning semantik yaxlitligi kiradi. Bunday birliklar nutqning ta'sirchanligini oshirib, badiiy matnning uslubiy qirralarini ta'minlaydi.

Frazeologik birliklar semantik va struktur jihatdan bir necha guruhlarga bo'linadi. Jumladan, idiomalar, maqol va matallar, frazeologik chatishmalar, frazeologik birikmalar va frazeologik qo'shilmalar keng tarqalgan turlardir [2]. Idiomalarda ma'no komponentlarning lug'aviy ma'nosidan farq qiladi. Masalan, "kallasini yo'qotmoq" iborasi bevosita emas, balki "o'zini boshqara olmay qolmoq" degan ma'noda ishlatiladi. Maqol va matallar esa xalq donishmandligi hamda hayotiy tajribani ifodalovchi frazeologik birliklardir.

Frazeologik birliklarni tarjima qilish tarjimashunoslikdagi eng murakkab masalalardan biridir. Chunki bunday birliklarda nafaqat ma'no, balki xalqning milliy mentaliteti, madaniyati va tarixiy tajribasi ham bo'ladi [3]. Tarjima jarayonida frazeologik birliklarning semantik mazmunini saqlash, ularning obrazliligi va uslubiy ta'sirini qayta yaratish muhimdir. Aks holda aslyat matnining badiiy-estetik qimmatini kamayadi.

Tarjimashunoslikda frazeologik birliklarni tarjima qilish uchun bir necha usullar mavjud. Eng keng tarqalgan usullardan biri ekvivalent tarjima hisoblanadi. Bu usulda aslyat tilidagi frazeologik birlik, tarjima tilida tayyor muqobil vositasi orqali ifodalanadi. Masalan, ingliz tilidagi "black frost" iborasi o'zbek tilida "qora sovuq" tarzida tarjima qilinadi [1]. Bunda ma'no, obraz va uslubiy ta'sir deyarli to'liq saqlanadi.

Analogik tarjima usulida esa aslyatdagi frazeologik birlik tarjima tilidagi ma'no jihatdan yaqin, ammo obraz jihatdan boshqa birlik bilan almashtiriladi. Masalan, ingliz tilidagi "when pigs fly" iborasi o'zbek tilida "tuya dumi yerga tekkanda" shaklida ifodalanadi. Bu usul milliy mentalitet va xalqona obrazlarni saqlash imkonini beradi.

Kalka usuli frazeologik birlikni so'zma-so'z tarjima qilishga asoslanadi. Bu usul asosan obraz tushunarli va shaffof bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Masalan, "golden wedding" iborasi "oltin to'y" shaklida tarjima qilinadi. Ammo ayrim hollarda kalka usuli noto'g'ri tushunishga olib kelishi mumkin. Shu sababli, tarjimon frazeologik birlikning semantik xususiyatlarini chuqur tahlil qilishi lozim.

Tasviriy tarjima usulida frazeologik birlikning ma'nosi erkin izoh yoki tavsif orqali beriladi. Bu usul, ayniqsa, tarjima tilida muqobil variant mavjud bo'lmagan hollarda qo'llaniladi. Masalan, ingliz tilidagi "a skeleton in the cupboard" iborasi "oila siri" tarzida tarjima qilinadi. Tasviriy tarjimada obraz to'liq saqlanmasligi mumkin, biroq mazmuni to'g'ri yetkazish asosiy maqsad hisoblanadi.

Frazeologik birliklar tarjimasida milliy-madaniy xususiyatlar va realiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Realialar muayyan xalqning turmush tarzi, urf-odati, madaniyati va tarixiga xos tushunchalarni ifodalaydi. Shu sababli, bunday birliklarni tarjima qilishda tarjimon lingvokulturologik yondashuvdan foydalanishi zarur bo'ladi. Milliy koloritni saqlash va tarjima matnining tushunarligini ta'minlash tarjimon oldidagi asosiy vazifalardan biridir.

Frazeologik birliklar tarjimasida masalalari ko'plab tarjimashunos olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Leonid Barxudarov tarjimada ekvivalentlik va adekvatlik masalalarini chuqur o'rgangan hamda frazeologik birliklarning semantik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratgan. Vilen Komissarov esa tarjimada pragmatik va stilistik moslik muammolarini tadqiq etgan. Irina Levitskaya va Yakov Fiterman frazeologik birliklarni tarjima qilish usullarini tizimlashtirib, ekvivalent, analogik, kalka va tasviriy tarjima usullarini ilmiy asosda izohlab berganlar. O'zbek tarjimashunosligida esa Ibrohim G'ofurov, O'tkir Mo'minov hamda N. Qambarov frazeologik birliklarning milliy xususiyatlari va ularni tarjima qilish muammolarini keng yoritgan. Shuningdek, Shuhrat Sirojiddinov va Gulnoza

Odilova badiiy tarjimada obrazlilik va milliy koloritni saqlash masalalariga alohida to'xtalib o'tganlar.

**Natijalar va muhokama.** Kecha va kunduz romani til jihatidan o'zbek badiiy nasrining eng boy namunalaridan biri bo'lib, unda frazeologik birliklar muhim poetik va stilistik funksiyani bajaradi. Ushbu birliklar qahramonlarning ruhiy holatini ochish, milliy koloritni yaratish va matnning obrazlilikini kuchaytirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu bois ularni tarjima qilish jarayoni oddiy lingvistik ko'chirish emas, balki murakkab lingvokulturologik transformatsiyani talab etadi. Christopher Fort tarjimasini tahlili shuni ko'rsatadiki, u frazeologizmlarni berishda bir xil strategiyaga emas, balki vaziyatga qarab turli usullarning kombinatsiyasiga tayanadi. Uning asosiy yondashuvi — semantik adekvatlikni saqlagan holda ingliz tilida tabiiy va o'quvchiga tushunarli ifoda yaratishdir. Natijada tarjimada ko'pincha ma'no ustuvor, obraz esa ikkilamchi o'ringa o'tadi. Birinchi navbatda, ayrim frazeologik birliklar to'liq yoki deyarli to'liq ekvivalent orqali tarjima qilinganini ko'rish mumkin. Masalan, "...iliq qon yugurdi" iborasi "warm blood rushes" shaklida berilgan [7;4; 8;45]. Bu yerda metaforik asos ham, hissiy dinamika ham saqlangan. Xuddi shuningdek, "ko'ngli yumshoq bo'lmoq" iborasi "heart is usually tender" tarzida tarjima qilinib, semantik va emotsional ma'no deyarli to'liq yetkazilgan [7;7; 8;48]. Bunday holatlar tarjimonning ekvivalent topishdagi muvaffaqiyatini ko'rsatadi va badiiy ta'sirning saqlanishiga xizmat qiladi. Biroq frazeologizmlarning katta qismi qisman moslik asosida tarjima qilingan. Bu holatda ma'no saqlanadi, lekin obraz o'zgaradi yoki soddalashtiriladi. Masalan, "yuraklaring g'ash bo'lgandir" iborasi "made your hearts tense" tarzida berilgan [7;7; 8;48]. Ingliz tilida bu ifoda hissiy holatni bildiradi, ammo o'zbek tilidagi obrazlilik va xalqona rang kamayadi. Xuddi shuningdek, "ko'ngli tusay boshlagan" iborasi "her heart had started" shaklida soddalashtirilgan [7;5; 8;46]. Bu yerda iboraning psixologik nozikligi to'liq ochilmagan. Demak, qisman moslik strategiyasi semantik adekvatlikni ta'minlasa-da, stilistik boylikni qisqartiradi. Analogik tarjima holatlari ham muhim o'rin tutadi. Masalan, "so'zga epchil" iborasi "as sharp as her tongue was" tarzida berilgan [7;10; 8;50]. Bu ingliz tilida mavjud bo'lgan obrazli ifoda bo'lib, asliyatdagi mazmunni tabiiy va ta'sirli shaklda yetkazadi. Shuningdek, "qovog'ingizni ochsangizchi" iborasi "unfrown your brow" tarzida tarjima qilinib, ingliz tiliga xos obraz orqali ifodalangan [7;10; 8;50]. Bu kabi misollar tarjimonning lingvistik moslashtirishda yuqori darajada sezgir ekanini ko'rsatadi.

Ekvivalent topilmagan holatlarda esa tarjimon tasviriy (izohli) usulga murojaat qiladi. Masalan, "keti uzilmagan sovchilar" iborasi "matchmakers that poured into her house uninterruptedly" tarzida tarjima qilingan [7;5, 8;46]. Bu yerda asosiy ma'no to'liq yetkazilgan bo'lsa-da, frazeologik obraz yo'qolgan. Shuningdek, "og'iz ochmay jim qoldi" iborasi "left in silence and in dilemma" tarzida berilib, mazmun kengaytirilgan [7;8, 8;48]. Bu usul o'quvchiga tushunarlikni ta'minlaydi, ammo badiiy zichlikni kamaytiradi.

Kalka usuli kamroq uchraydi, ammo ayrim misollarda qo‘llangan. Masalan, “yorug‘ dunyoga keldingiz” iborasi “you have come into the bright world” tarzida deyarli so‘zma-so‘z tarjima qilingan [7;10, 8;50]. Bu yerda obraz saqlangan, lekin ingliz tilida bunday ifoda tabiiy emas. Shu sababli kalka usuli qisman muvaffaqiyatli deb baholanadi. Tahlil shuni ham ko‘rsatadiki, ayrim frazeologik birliklar umuman tarjima qilinmagan yoki tushirib qoldirilgan. Masalan, “qovog‘idan qor yog‘ib turgan” iborasining yo‘qligi milliy koloritning sezilarli darajada kamayishiga olib kelgan [7;7]. Bu holat tarjimada yo‘qotish muammosini yaqqol ko‘rsatadi. Tarjima sifatini baholashda semantik adekvatlik yuqori darajada ekanini ko‘rish mumkin. Ko‘pchilik frazeologizmlar asosiy ma‘nosini yo‘qotmagan. Biroq stilistik adekvatlik o‘rtacha darajada: ayrim joylarda obrazlilik saqlangan bo‘lsa, boshqa hollarda soddalashtirish kuzatiladi. Pragmatik jihatdan tarjima muvaffaqiyatli bo‘lib, ingliz o‘quvchisi matnni oson qabul qiladi. Milliy koloritni saqlash masalasi esa eng murakkab jihat bo‘lib qoladi. Ba‘zi hollarda obrazlar saqlangan bo‘lsa, ko‘p hollarda ular neytrallashtirilgan yoki ingliz tiliga moslashtirilgan. Natijada o‘zbek xalqona tafakkuriga xos ifodaviy boylik qisman yo‘qoladi. Shu bilan birga, tarjimon kompensatsiya usulidan ham foydalanadi. Masalan, “so‘zga epchil” iborasining “as sharp as her tongue was” tarzida berilishi ingliz tilida yangi, kuchli obraz yaratib, yo‘qotilgan milliy rangni qisman to‘ldiradi.

Umuman olganda, Kristofer Fort tarjimasida frazeologik birliklarni berishda kompleks va moslashuvchan yondashuvga asoslangan. U ekvivalent, analogik, tasviriy va qisman kalka usullarini uyg‘unlashtirgan holda ishlatadi. Tarjima strategiyasining asosiy xususiyati — **semantik va pragmatik adekvatlikni ustuvor qo‘yishdir**. Natijada tarjima ingliz o‘quvchisi uchun tushunarli va tabiiy bo‘lsa-da, lingvokulturologik jihatdan ayrim yo‘qotishlar yuzaga keladi.

Christopher Fort tomonidan “Kecha va kunduz” romanining ingliz tiliga tarjimasida frazeologik birliklar bilan ishlash jarayoni murakkab lingvistik va madaniy muammolarni yuzaga chiqaradi. Bu muammolar, avvalo, frazeologizmlarning milliy xususiyatga egaligi, ularning obrazli tabiati va tarjima tilida to‘liq ekvivalentlarning yetishmasligi bilan bog‘liq. O‘zbek tiliga xos “qovog‘idan qor yog‘ib turgan” kabi iboralar ingliz tilida tayyor muqobilga ega emas. Bunday holatda tarjimon semantik ma‘noni saqlashni ustuvor deb biladi, ammo obraz va milliy rang yo‘qoladi. Natijada tarjima matnida stilistik ta‘sir biroz pasayadi. “Keti uzilmagan sovchilar” iborasi o‘zbek jamiyatidagi nikoh an‘analari bilan chambarchas bog‘liq. Ingliz o‘quvchisi uchun bu tushuncha begona bo‘lgani sababli tarjimon uni tasviriy shaklda — “matchmakers that poured into her house uninterruptedly” tarzida ifodalaydi. Bu usul ma‘noni yetkazadi, lekin milliy madaniy konnotatsiya to‘liq aks etmaydi. Frazeologizmlarning yana bir asosiy kuchi ularning metaforik va obrazli ifodasidir. Masalan, “damini ichiga solgan” iborasining “tight-lipped” tarzida tarjima qilinishi mazmunni beradi, ammo asliyatdagi hissiy chuqurlik va milliy tasvir qisman yo‘qoladi.

Tarjimon ushbu muammolarni hal qilish uchun bir nechta strategiyalardan foydalanadi. Eng keng qoʻllanilgan usul — moslashtirish (adaptatsiya). Masalan, “soʻzga epchil” iborasining “as sharp as her tongue was” shaklida berilishi ingliz tilida tabiiy va stilistik jihatdan mos ifoda yaratadi. Bu usul oʻquvchi uchun qulaylik tugʻdiradi, biroq milliylikni yumshatadi.

Yana bir muhim strategiya neytrallashtirish boʻlib uni quyidagi misolda kuzatishimiz mumkin “Koʻngli tusay boshlagan” iborasining oddiy “her heart had started” tarzida tarjima qilinishi bunga misoldir. Bu yerda maʼno saqlanadi, lekin emotsional rang kamayadi. Neytrallashtirish tarjimaning tushunarligini oshiradi, ammo badiiylikni pasaytiradi. Shuningdek, tarjimon ijodiy yondashuvdan ham foydalanadi. “Qovogʻingizni ochsangizchi” iborasining “unfrown your brow” tarzida berilishi ingliz tilida tabiiy frazeologik muqobil yaratish orqali kompensatsiya vazifasini bajaradi. Umuman olganda, Christopher Fort tarjimasida asosiy ustuvorlik semantik aniqlik va kommunikativ qulaylikka berilgan. Natijada tarjima oʻquvchi uchun tushunarli va tabiiy boʻlsa-da, ayrim hollarda milliy kolorit va obrazlilik qisman yoʻqoladi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, frazeologik birliklar badiiy tarjimaning eng murakkab, shu bilan birga eng muhim elementlaridan biridir. Ular nafaqat semantik maʼno, balki milliy-madaniy dunyoqarashni ham ifodalaydi. Shu sababli ularni tarjima qilishda ekvivalentlik, moslashtirish, analogik va tasviriy usullar asosiy qonuniyat sifatida namoyon boʻladi. Kristofer Fort tarjimasini ilmiy jihatdan kommunikativ va funksional adekvatlikka asoslangan muvaffaqiyatli adaptiv tarjima modeli sifatida baholanishi mumkin. U aslyatdagi mazmuni yetkazishda yuqori darajada muvaffaqiyatga erishgan boʻlsa-da, milliy obrazlilik va frazeologik rang-baranglik qisman kamaygan. Ushbu kichik tadqiqotimiz kelajakdagi tadqiqotchilar Choʻlpon asarlarining boshqa inglizcha tarjimalari bilan keng qiyosiy tahlil qilishlari, frazeologik birliklarning korpus asosida statistik tahlilini va milliy obrazlarni saqlash uchun optimal tarjima modellari ishlab chiqishlari va badiiy tarjimada lingvokulturologik kompensatsiya mexanizmlarini chuqur oʻrganishlari uchun qoʻl kelishi mumkin. Umuman olganda, Fort tarjimasini oʻzbek badiiy prozasini ingliz tilida ommalashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega boʻlgan tarjima namunasi sifatida qaraladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Gʻofurov I., Moʻminov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur boʻstoni, 2012.
2. Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. – Toshkent: Mumtoz soʻz, 2011.
3. Vinogradov V. Osnovnye ponyatiya russkoy frazeologii. – Moskva: Nauka, 1977.
4. Barxudarov L. Yazyk i perevod. – Moskva: Mejdunarodnye otnosheniya, 1975.
5. Komissarov V. Teoriya perevoda. – Moskva: Visshaya shkola, 1990.
6. Levitskaya T., Fiterman A. Teoriya i praktika perevoda. – Moskva: Literatura na inostrannix yazikax, 1963.
7. Abdulhamid Choʻlpon. *Kecha va kunduz*. – Toshkent: Turon zamin, 2023.
8. Christopher Fort. *Night and Day*. – Boston: Academic Studies Press, 2019.
9. Newmark P. A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, 1988.
10. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: Routledge, 2011.

11. Catford J. C. A Linguistic Theory of Translation. – Oxford: Oxford University Press, 1965.
12. Nida E. A., Taber C. R. The Theory and Practice of Translation. – Leiden: Brill, 1969.
13. Bassnett S. Translation Studies. – London: Routledge, 2013.
14. Schaffner C. Translation and Norms. – Clevedon: Multilingual Matters, 1999.
15. Mona Baker (ed.). Routledge Encyclopedia of Translation Studies. – London: Routledge, 2009.

